

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# №10

2025  
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,  
63 sahifa, oktyabr, 2025-yil.

## Bosh muharrir:

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                        |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI .....                       | 12 |
| <b>Quliyev Begimqul Melikovich</b>                                                                                     |    |
| EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI .....                            | 18 |
| <b>Bahtiyor Ismoilov Ulug'bek o'g'li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna</b>                                               |    |
| O'ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI .....                                                           | 25 |
| <b>Davletova Nilufar Tulanovna</b>                                                                                     |    |
| EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....                  | 30 |
| <b>Qodirov Farrux Ergash o'g'li</b>                                                                                    |    |
| SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI .....                                        | 37 |
| <b>Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna</b>                                                                           |    |
| PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN .....                             | 41 |
| <b>Muminov Sherzod Kholmiraevich</b>                                                                                   |    |
| MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO'LLARI .....               | 46 |
| <b>Sultanov Dilshod Normamatovich</b>                                                                                  |    |
| IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... | 50 |
| <b>Akhmadaliyeva Nikholakhon</b>                                                                                       |    |
| RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....                       | 55 |
| <b>Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li</b>                                                                             |    |



# RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li**

Andijon davlat texnika registrator ofisi ma'lumotlar bazasini boshqarish bo'limi boshlig'i

Email: hikmatillovohobov0343@gmail.com

ORCID: 0009-0000-7534-4236

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda raqamli platformalarning roli, ularning afzalliklari, turli xil raqamli texnologiyalar hamda ularning biznesni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning kichik biznesga ta'siri, asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, raqamli platformalar, xususiy tadbirkorlik, elektron tijorat, bulutli texnologiyalar, marketing, fintech, raqamli iqtisodiyot, texnika, innovatsiya, menejment, intellekt, transfer, startup, biznes, oliy ta'lim, tadbirkorlik, rivojlantirish, investitsiya, raqobat.

**Abstract:** This article highlights the role of digital platforms in small business and private entrepreneurship, their advantages, various types of digital technologies, and their importance in business development. It also discusses the impact of digital transformation on small business, the main challenges, and ways to overcome them.

**Keywords:** small business, digital platforms, private entrepreneurship, e-commerce, cloud technologies, marketing, fintech, digital economy, technology, innovation, management, intelligence, transfer, startup, business, higher education, entrepreneurship, development, investment, competition.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается роль цифровых платформ в малом бизнесе и частном предпринимательстве, их преимущества, различные виды цифровых технологий и их значение для развития бизнеса. Также рассматривается влияние цифровой трансформации на малый бизнес, основные трудности и пути их преодоления.

**Ключевые слова:** малый бизнес, цифровые платформы, частное предпринимательство, электронная коммерция, облачные технологии, маркетинг, финтех, цифровая экономика, технологии, инновации, менеджмент, интеллект, трансфер, стартап, бизнес, высшее образование, предпринимательство, развитие, инвестиции, конкуренция.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-noyabrdagi "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-366-son'li qaroriga ko'ra, kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularning biznes tashabbuslarini moliyalashtirish va loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish bo'yicha yaxlit tizim joriy etish maqsad qilib olingan. Ushbu maqsadga erishish uchun [1]:

Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilangan: aholi va tadbirkorlik subyektlarini o'qitish orqali ularning biznes tashabbuslarini moliyaviy hamda konsultativ qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish, "oilaviy tadbirkor – mikrobiznes – kichik biznes – o'rta biznes" zanjiri asosida ularning faoliyatini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; davlat dasturlari doirasida kichik va o'rta biznes loyihalarini "Biznesni rivojlantirish banki" ATB, "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ va boshqa hamkor tijorat banklaridan iborat yaxlit moliyaviy tizim asosida qo'llab-quvvatlash; tadbirkorlikka o'qitish, kichik va o'rta biznes loyihalarini moliyalashtirish hamda biznes jarayonlarining barcha bosqichlarida doimiy

1 <https://lex.uz/docs/-6663044>

hamrohlikni “Kichik biznesga ko‘maklashish markazi” MCHJlar, “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ, shuningdek, vakolatli organlar va tijorat banklarining tadbirkorlik yo‘nalishidagi elektron platformalari orqali amalga oshirish nazarda tutilgan.

2024–2026-yillar uchun “Biznesni rivojlantirish banki” ATB va “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ faoliyatining asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari quyidagicha belgilangan: “Biznesni rivojlantirish banki” ATB bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlar qoldig‘ini 1,7 baravarga oshirish orqali kredit portfelidagi ulushni 28 foizdan 43 foizga yetkazish, kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jami 800 million AQSH dollarigacha resurslar jalb qilish, 300 million AQSH dollari miqdorida obligatsiyalarni (yevrobondlarni) xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish, 150 mingta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyatini yo‘lga qo‘yish va kengaytirish; “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ bo‘yicha esa kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar hajmini 8 trillion so‘mdan 14 trillion so‘mga yetkazish, 150 ta o‘rta biznes korxonasiga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasi asosida 300 ta loyihani tadbirkorlik subyektlariga sotish, o‘rta tadbirkorlik subyektlari sonini 2,5 baravarga oshirish hamda 300 million AQSH dollari miqdorida obligatsiyalarni (yevrobondlarni) xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish rejalashtirilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi [5].

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarida turli raqamli platformalardan foydalanishga intilmoqda. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda qo‘llaniladigan raqamli platformalarning holati, ulardan foydalanish tendensiyalari va samaradorligi tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish hamda ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud tijoratni transformatsiyalash — bu tijoratni yangicha tizimga o‘tkazishdir.

Elektron tijoratning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan tizimi inson omilisiz boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, korrupsiyani kamaytirish, soliq tushumlarini “aqlii” shartnomalar orqali ko‘paytirish, budget xarajatlarining ochiqqligini oshirish hamda yagona elektron platforma orqali xizmatlar ko‘rsatish imkonini beradi [6].

Raqamlashtirish va raqamli o‘zgarish tamoyillari tufayli so‘nggi o‘n yil ichida global raqamli platformalarning rivojlanishi ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatini muvofiqlashtirish tizimini, mamlakatlar hamda ko‘p milliy kompaniyalar ishtirokidagi ixtisoslashuv jarayonini tubdan o‘zgartirdi. Ularning biznes modellari raqamli iqtisodiyotning yangi talablariga moslashishga majbur bo‘ldi. Shu bois ma‘lumotlar va raqamli intellektga asoslangan biznes modellar global iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylandi, bu esa salmoqli global raqamli platformalarning tez sur‘atlarda paydo bo‘lishiga olib keldi.

Natijada, bozor kapitallashuvi bo‘yicha dunyodagi eng yirik kompaniyalar reytingi sezilarli darajada o‘zgardi. Agar o‘n yillar avval neft-gaz sanoati va mashinasozlik sohasidagi ko‘p milliy kompaniyalar yetakchilik qilgan bo‘lsa, bugungi kunda raqamli intellekt va ma‘lumotlarga ixtisoslashgan kompaniyalar — Google, Facebook, Microsoft, Apple kabi — bozorning yetakchi kuchlariga aylangan. Raqamli platformalarning biznesga ta’siri sezilarli darajada ijobiy ekani kuzatilmoqda [5].

Ular xarajatlarni kamaytirish, mijozlar bilan tezkor aloqa o‘rnatish va samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Shunga qaramay, ayrim cheklovchi omillar ham mavjud bo‘lib, ular orasida texnologik resurslarga kirish imkoniyatining pastligi va raqamli xizmatlarning to‘liq integratsiyalanmaganligi asosiy muammolar sifatida ajralib turadi.

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun raqamli platformalar nihoyatda muhim rol o‘ynamoqda. Ular biznesni yuritish, mijozlar bilan aloqa qilish, mahsulot va xizmatlarni targ‘ib etish hamda savdo jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli platformalar kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, turli qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi.

Raqamli transformatsiya jarayonida tadbirkorlar biznes modellarini moslashtirishlari, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishlari va moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, raqamli platformalar kichik biznesni yirik kompaniyalarga nisbatan raqobatbardosh qiladi. Shu bilan birga, ayrim kichik tadbirkorlar uchun texnologik innovatsiyalarni tatbiq etish va ulardan samarali foydalanish murakkab bo‘lishi mumkin. Kelajakda esa sun‘iy intellekt, blokcheyn va IoT texnologiyalarining kichik biznesga integratsiyasi tadbirkorlar uchun yangi istiqbollar ochishi kutilmoqda. Shu sababli, tadbirkorlar doimiy ravishda bilim va ko‘nikmalarini oshirib borishlari, yangi tendensiyalarni kuzatishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o‘z rivojlanishining boshlang‘ich bosqichidadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o‘tishi atigi bir necha o‘n yillar avval boshlangan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasini ilmiy amaliyotga ispan va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Castells



kiritgan. U bu borada o'zining "Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat" nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Hozirgi paytda raqamli iqtisodiyot nazariyasi to'liq shakllanmagan bo'lib, ko'plab iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon "yangi raqamli iqtisodiyoti" turli nomlar bilan ifodalanadi. Masalan, "postindustrial iqtisodiyot" (D. Bell), "axborotlashgan iqtisodiyot" (O. Toffler), "megaiqtisodiyot" (V. Kuvaldin), "axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot" (I. Niniluto), "texnoiqtisodiyot" yoki "raqamli iqtisodiyot" (B. Gates), "bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" (D. Tapscott) [6].

Ushbu tushunchalarni birlashtiruvchi omil — iqtisodiy jarayonlarning globallashuv sharoitida raqamli axborot texnologiyalarining yetakchi o'rinni egallashidir. O'zbekiston oldida global raqobatbardoshlik va milliy xavfsizlik masalalari turibdi. Ushbu masalalarni hal etishda mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Hozirgi kunda hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o'tkazilayotganini inobatga olib, elektron imzodan foydalanishga ruxsat berish, davlat bilan muloqotni elektron platformalar orqali amalga oshirish tizimi joriy etilgan.

Raqamlashtirish sabablarini tahlil qiladigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot hamda elektron tijoratning paydo bo'lishi, ularning maqsad va vazifalari R. H. Ayupov va G. R. Boltaboeva tadqiqotlarida yoritilgan. Ular raqamli iqtisodiyot faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi usullar va texnologiyalarni tahlil qilgan. Iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish nafaqat axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini, balki mamlakat xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini ham qamrab oluvchi keng qamrovli tendensiyaga aylanib bormoqda [9].

Shuningdek, akademik S. S. G'ulomov (2010) o'z ilmiy ishlarida axborot oqimlarini optimal tashkil etish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotda samarali qo'llash, hamda raqamli iqtisodiyotning shakllanish jarayonlarini keng yoritgan. Professor Alimov (2001) esa o'z tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlariga axborot tizimlarini joriy etish, ularning tizim ostilarini optimal loyihalash hamda texnik va dasturiy-texnologik vositalardan samarali foydalanishning iqtisodiy-matematik modellarini taklif etgan [18].

B. A. Begalov (2013) ilmiy ishlarida statistik reglament masalalarini yechish algoritmlari va modellarini, axborotlashgan jamiyatning shakllanish tendensiyalarini, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda AKTdan keng foydalanish mexanizmlarini hamda ta'lim jarayonlariga innovatsion axborot texnologiyalarini keng joriy etish masalalarini o'rgangan. Quchqarov (2019) esa o'z ilmiy ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini moliya tizimi muammolarini hal etishda qo'llash, g'aznachilik masalalarini ilg'or axborot tizimlari asosida yechishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqqan hamda idoralararo axborot almashinuvni keng yo'lga qo'yishda axborot tizimlarining integratsiyasini ta'minlash zarurligini taklif etgan [18].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil — raqamli platformalar va ularning kichik biznesdagi ahamiyati bo'yicha ilmiy maqolalar hamda amaliy tadqiqotlar tahlil qilindi; empirik tadqiqot — kichik biznes subyektlari o'rtasida so'rovnoma va intervyular o'tkazildi; statistik tahlil — biznes jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligi hisoblab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish nafaqat bevosita axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini, balki mamlakat xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini ham qamrab oluvchi keng qamrovli tendensiyaga aylanib bormoqda. Internet-savdo, raqamli qishloq xo'jaligi, "aqlli" elektr tarmoqlari tizimlari, haydovchisiz transport vositalari va shaxsiylashtirilgan sog'liqni saqlash tizimiga ham raqamli iqtisodiyot inqilobi kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli iqtisodiyot — bu innovatsion g'oya bo'lib, bu fikr Jahon banki tomonidan 2016-yil "Jahon taraqqiyoti haqida ma'ruza – 2016: Raqamli dividendlar" nomli hisobotda ilgari surilgan. Bunday sharoitda alohida kompaniyalar, mintaqalar, mamlakatlar va ularning ittifoqlari texnologiyalar, tovarlar va xizmatlarning yangi turlari bozorlarida uzoq muddatli raqobat ustunliklarini shakllantirishga intilib, raqamli iqtisodiyot sohasida strategik qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga faol kirishmoqda. Raqamli iqtisodiyot hamda elektron tijorat real voqelikni to'ldirib turuvchi o'ziga xos virtual muhitdir [6].

G'arb mamlakatlari ekspertlarining fikricha, raqamli texnologiyalar iqtisodiyot subyektlari va boshqaruv o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirib, faol axborotlashtirish jarayoni iste'molchilarning xulq-atvorini ham tubdan o'zgartiradi. Elektron marketing esa asta-sekin iqtisodiy o'zaro aloqalarning mohiyatiga chuqur kirib borib, har bir kishini iqtisodiy faoliyatga jalb qiluvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch — ehtiyojlarga tobora yaqinlashmoqda.



Raqamli iqtisodiyotdagi elektron tijoratning boshqaruv jarayoni — bu professional kadrlar orqali amalga oshiriladigan, o'zaro aloqalarni boshqaruvchi kompyuterlashtirilgan tizimdir. U insoniyatning ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida elektron ma'lumotlardan faol foydalanishga asoslangan keng ko'lamli ishlarni o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish jarayonida tizim faoliyatini boshorat qilish, rejalashtirish, tashkil etish, ijro, nazorat va muvofiqlashtirish funksiyalari muhim o'rin tutadi. Mamlakatni raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish hamda ularni hayotga tatbiq etish uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish asosida xalq xo'jaligi majmuasini boshqarishning yagona tizimini yaratish zarur.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi davrda raqamli olam va jismoniy (moddiy) olam tobora bir-biriga yaqinlashib bormoqda. Bu ikki olamning jipslashuvi natijasida ularning o'zaro bog'liqligi idrokli olamning shakllanishiga olib keladi. Global raqamlashtirish jarayoni esa jismoniy shaxslar, korxonalar va hukumatlarning barqaror o'sishi hamda ularning faoliyatini qulaylashtirishga xizmat qilib, tobora tezlashmoqda. Bunday sharoitda rivojlanishning sust bo'lishi mamlakatda yangi raqobat ustunliklarini yaratish, ilg'or g'oyalarga asoslangan yechimlarni topish va o'sish imkoniyatlarini izlash orqali bartaraf etilishi mumkin. Tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish sohasidagi investitsiyalar, xususan, elektron tijorat tizimlariga kiritilgan mablag'lardan olinadigan foyda iqtisodiyot rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasining ayrim qismlari hali bu talablarni to'liq qondira olmayapti.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hozirda raqamli infratuzilmani rivojlantirishda investitsiyalarni yetarli darajada qoplash qiyinchiliklariga duch kelmoqda. Bu kabi muammolarni hal etish uchun barcha manfaatdor tomonlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur. Shuningdek, AKT infratuzilmasini rivojlantirish bilan bir qatorda, hukumatlar jismoniy shaxslar va biznes subyektlari orasida raqamli savodxonlik darajasini oshirishlari lozim. Shu orqali sohaviy tuzilmalarni kengaytirish, raqamli texnologiyalar yordamida tijorat va biznes g'oyalarga yangicha yondashuvlarni topish hamda an'anaviy sanoat salohiyatini mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi [6].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishda yangi raqamli texnologiyalar hamda platformalar jismoniy shaxslar va korxona menejmentiga o'zaro aloqalarda transaksiya xarajatlarini kamaytirish, davlat idoralari va xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Natijada, tarmoq servislarga asoslangan raqamli yoki elektron iqtisodiyot tizimi shakllanadi.

Masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda qo'llaniladigan raqamli platformalar quyidagi toifalarga bo'linadi [5]:

Elektron savdo (E-commerce) platformalari. Kichik biznes egalari o'z mahsulot va xizmatlarini onlayn sotish uchun foydalanadi:

- Shopify — internet-do'kon yaratish va boshqarish uchun qulay platforma;
- WooCommerce — WordPress asosidagi e-commerce tizimi;
- Magento — o'rta va yirik biznes uchun ochiq kodli platforma;
- OZON, Wildberries, Etsy — mahalliy va xalqaro marketplace'lar.

Ijtimoiy tarmoqlar va marketing platformalari. Mijozlarni jalb qilish, reklama va brendni rivojlantirish uchun ishlatiladi:

- Facebook, Instagram, TikTok, LinkedIn — mijozlar bilan muloqot va reklama uchun;
- Hootsuite, Buffer — ijtimoiy media postlarini rejalashtirish va boshqarish;
- Google Ads, Facebook Ads — raqamli reklama vositalari.

To'lov tizimlari va moliyaviy boshqaruv platformalari. Onlayn to'lovlarni qabul qilish, tranzaksiyalarni boshqarish va buxgalteriya hisobi yuritish uchun mo'ljallangan:

- Payme, Click, Paynet — O'zbekiston bozoridagi mashhur to'lov tizimlari;
- PayPal, Stripe, Square — xalqaro to'lov tizimlari;
- QuickBooks, Xero — kichik biznes uchun moliyaviy boshqaruv dasturlari.

Biznesni avtomatlashtirish va mijozlar bilan ishlash tizimlari (CRM/ERP).

- Salesforce, HubSpot CRM — mijozlarni boshqarish va marketing avtomatizatsiyasi;
- Bitrix24, Zoho CRM — kichik biznes uchun qulay CRM tizimlari;
- SAP, Odoo, 1C — biznes jarayonlarini avtomatlashtiruvchi ERP tizimlari.

Onlayn xizmatlar va ish jarayonlarini boshqarish platformalari. Masofaviy ish, hujjat aylanishi va jamoaviy faoliyatni tashkil etish uchun:

- Google Workspace (Docs, Sheets, Drive) — hujjatlar bilan ishlash va jamoaviy ish;
- Microsoft 365 (Word, Excel, Teams) — ish jarayonlarini optimallashtirish;
- Trello, Asana, Monday.com — loyihalar va vazifalar boshqaruvi;
- Slack, Zoom — jamoa kommunikatsiyasini samarali tashkil etish.

Kadrlar boshqaruvi va ishga qabul qilish platformalari.

- LinkedIn Talent Solutions — kadrlar yollash va taklif berish;
- BambooHR, Workday — HR jarayonlarini avtomatlashtirish (1-jadval).





1-jadval. 2020-2024-yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda foydalaniladigan raqamli platformalardan foydalanuvchilar soni [5] mln. kishi.

| Yil  | E-commerce | Social Media | Payment Systems | CRM/ERP | Online Advertising |
|------|------------|--------------|-----------------|---------|--------------------|
| 2020 | 2,1        | 3,5          | 1,8             | 0,8     | 2,5                |
| 2021 | 2,8        | 4,2          | 2,5             | 1,2     | 3,1                |
| 2022 | 3,5        | 5,0          | 3,2             | 1,7     | 3,8                |
| 2023 | 4,3        | 5,8          | 3,9             | 2,3     | 4,5                |
| 2024 | 5,0        | 6,5          | 4,7             | 3,0     | 5,2                |

Texnologik taraqqiyot sur'ati sekinlashish alomatlarini ko'rsatmayapti, va biz, albatta, voqealarning keskin burilishlarini to'xtatib, soddaroq davrlarga qaytmaymiz. Raqamli transformatsiya — zamonaviy dunyoning tez sur'atlariga moslashishning yagona yo'li hisoblanadi. Bugungi ishbiarmonlik muhitida raqobatbardoshlikka erishish uchun zarur bo'lgan tezlik va chaqqonlik tashkilotlardan raqamli transformatsiyadan o'tishni talab qiladi.

2020–2024-yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda qo'llaniladigan raqamli platformalardan olinadigan daromad va xarajatlarning taqqoslama tahlili amalga oshirilgan. Tahlil quyidagi toifalar bo'yicha olib borilgan:

– Daromad: elektron savdo (E-commerce), ijtimoiy media marketing, to'lov tizimlari va biznes avtomatlashtirish platformalaridan olinadigan umumiy tushum;

– Xarajatlar: ushbu platformalardan foydalanish uchun tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan obuna, tranzaksiya va reklama xarajatlari.

2-jadval [5] ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida kichik biznesda foydalaniladigan raqamli platformalarning daromad va xarajatlari (mlrd AQSh dollari hisobida) taqqoslab ko'rsatilgan (2-jadval).

2-jadval. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda raqamli platformalarning daromad va xarajatlari (2020-2024-yillar) (mlrd \$)

| Ko'rsatkichlar           |         | Yillar |      |      |      |      |
|--------------------------|---------|--------|------|------|------|------|
|                          |         | 2020   | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| E-commerce               | Daromad | 5,2    | 6,5  | 8,0  | 9,8  | 11,5 |
|                          | Xarajat | 1,2    | 1,5  | 1,8  | 2,2  | 2,6  |
| Ijtimoiy media marketing | Daromad | 3,5    | 4,3  | 5,1  | 6,0  | 7,2  |
|                          | Xarajat | 1,0    | 1,3  | 1,6  | 1,9  | 2,3  |
| To'lov tizimlari         | Daromad | 2,8    | 3,4  | 4,0  | 4,8  | 5,5  |
|                          | Xarajat | 0,7    | 0,9  | 1,1  | 1,3  | 1,6  |
| CRM/ERP tizimlari        | Daromad | 1,5    | 2,0  | 2,7  | 3,5  | 4,4  |
|                          | Xarajat | 0,5    | 0,7  | 1,0  | 1,3  | 1,7  |
| Onlayn reklama           | Daromad | 4,0    | 5,0  | 6,2  | 7,5  | 9,0  |
|                          | Xarajat | 1,2    | 1,6  | 2,0  | 2,5  | 3,1  |

– E-commerce: daromad 2020-yilda 5,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 11,5 mlrd AQSh dollariga yetgan. Xarajatlar esa 2020-yilda 1,2 mlrd AQSh dollari, 2024-yilda esa 2,6 mlrd AQSh dollarigacha oshgan.

– Ijtimoiy media marketing: 2020-yilda 3,5 mlrd AQSh dollari daromad qayd etilgan, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 7,2 mlrd AQSh dollariga yetgan. Xarajatlar ham 1,0 mlrd AQSh dollaridan 2,3 mlrd AQSh dollarigacha oshgan.

– To'lov tizimlari: 2020-yilda 2,8 mlrd AQSh dollari daromad, 2024-yilda 5,5 mlrd AQSh dollarigacha oshgan. Xarajatlar esa 0,7 mlrd AQSh dollaridan 1,6 mlrd AQSh dollarigacha ko'tarilgan.

– CRM/ERP tizimlari: 2020-yilda 1,5 mlrd AQSh dollari, 2024-yilda esa 4,4 mlrd AQSh dollariga yetgan. Xarajatlar 0,5 mlrd AQSh dollaridan 1,7 mlrd AQSh dollarigacha oshgan.

– Onlayn reklama: 2020-yilda 4,0 mlrd AQSh dollari daromad qayd etilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 9,0 mlrd AQSh dollariga yetgan. Xarajatlar esa 1,2 mlrd AQSh dollaridan 3,1 mlrd AQSh dollarigacha oshgan.

E-commerce va onlayn reklama eng katta daromad keltiruvchi platformalar bo'lib, 2024-yilda ularning daromadi mos ravishda 11,5 mlrd va 9,0 mlrd AQSh dollariga yetgan [5]. Xarajatlar daromadlarga nisbatan sekinroq o'smoqda, bu esa raqamli platformalar tadbirkorlar uchun yuqori rentabellikka ega ekanligini ko'rsatadi. CRM/ERP tizimlariga kiritilayotgan sarmoyalar ham ortib bormoqda, bu bizneslarning avtomatlashtirish jarayoniga tobora katta e'tibor qaratayotganini anglatadi [5].

1. Daromad va xarajatlar o'sishi (2020–2024-yillar): Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, E-commerce va onlayn reklama eng ko'p daromad keltiruvchi platformalar hisoblanadi. Ijtimoiy media marketing va to'lov tizimlari ham sezilarli o'sishga ega. CRM/ERP tizimlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar esa biznes jarayonlarini avtomatlashtirishga bo'lgan ehtiyoj ortayotganini ko'rsatadi.

2. Daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq: E-commerce sektorida 2024-yilda daromad 11,5 mlrd AQSh dollarini, xarajat esa 2,6 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Onlayn reklama sohasida esa 2024-yilda 9,0 mlrd AQSh dollari daromad va 3,1 mlrd AQSh dollari xarajat qayd etilgan. Barcha platformalar bo'yicha daromadlar xarajatlardan ancha yuqori bo'lib, bu raqamli platformalarning iqtisodiy jihatdan foydaliligini tasdiqlaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida raqamli platformalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu platformalarga yo'naltirilgan investitsiyalar o'zini to'liq oqlamoqda va daromadlarning o'sish sur'ati xarajatlardan yuqori. Ayniqsa, elektron tijorat, ijtimoiy media marketing va onlayn reklama kichik biznes uchun eng samarali yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida, iqtisodiyotdagi dinamika va diversifikatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichkarisida va tashqarisida shunchalik katta hajmdagi ma'lumotlar aylanadi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot doirasida axborot trafigi kengayib boradi. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat axborot texnologiyalari xizmatlarining kirib borish darajasi yuqori hamda ishtirokchilar soni ko'p bo'lgan bozorlarda eng samarali faoliyat yuritadi. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratga ichki hamda tashqi investitsiyalarni samarali jalb etish, ularni diversifikatsiya qilish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, salohiyatli inson kapitalini tayyorlash va boshqaruv jarayonlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366- sonli "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori
2. Maxmudova D.R. Kichik biznes va uni boshqarishning metodologik asoslari, shakllari, metodlari va xususiyatlari. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 7 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 435-445 66.
3. Jabbarov E. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni takomillashtirish. o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 23-son, 2023 yil
4. Xaydarov N.X. O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili. "Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar" илий журнал № 2 (18) 5. Апрель-июнь, 2022 йил, 4-10 66.
5. B.Zuparov, U.K.Ayupova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni yanada rivojlantirish istiqbollari. O'zbekiston Oriental universiteti magistranti. Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko'chasi 1-uy.
6. Askarova S.B. Raqamli platformalar orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari. "Orzu Logistics" MCHJ moliyaviy menejeri.
7. Greg Daugherty. What Is a Small Business? Definition, Characteristics, and Challenges. 29.03.2024. <https://www.investopedia.com/small-business-8611031>
8. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. Rakamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istikbollari. –T: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018, 172 bet. [2]
9. Baltabaeva G.R.va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yunalishlari. –T: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018, 232 bet. [3]
10. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. Uzbekistonda innovatsion iktisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. – T:"Iktisod-moliya" nashriyoti, 2015, 144 bet.
11. Baltabaeva G.R. va boshkalar. Uzbekistonda elektron biznesning rivojlanish istikbollari. –T: "Format poligraf" nashriyoti, 2016, 205 bet.
12. T.Z. Teshabaev, Z.M. Otakuzieva. Axborotlashgan iqtisodiyot. Toshkent: "Alokachi" nashriyoti, 2017. 432 bet.
13. Ayupov R.X., Urunov R.S. O'zbekistonda raqamli iqtisod va 4.0 Industriyaning rivojlanish tendentsiyalari. Iqtisodiyotning tarmoqlarini innovatsion rivojlanishida AKT ning axamiyati, Respublika ilmiy-texnik anjumanining ma'ruzalar to'plami, 3-qism, 2019 yil. 14- 15 mart, 399-401 betlar.
14. Ayupov R.X., Qurbonov Z.M. Raqamli iqtisodiyotning davlat boshqaruvida yuzaga keladigan ijobiy va salbiy tomonlari. "Davlat boshqaruvida raqamlashtirish: muammo va yechimlar" mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2019 yil 12 aprel. 43-44 betlar.



15. Dr. Jay A. Dewhurst (2017) “Бизнесга кириш ва бизнесни режалаштириш” номли мақола. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. No 2, март-апрель.
16. Собиржонова Д., Бойматова У. (2017) Хусусий ва кичик бизнес менежменти. Ўқув қўлланма.-Т.: «Иқтисод-Молия».
17. Оқюлов О., Камалов О.А, Ибрагимов Б.А. Кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектлари. Ўқув қўлланма. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, -5-6. 2013й.
18. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollar. // Ilmiyamaliy anjuman ma’ruza tezislari to’plami. 2020 yil 14 oktyabr. – Toshkent. 2020.
19. Kate Gibson. Digital Platforms: What They Are & How They Create Value. 08.05.2024. <https://online.hbs.edu>
20. Endi Patrizio. Raqamli platforma. <https://www.techtarget.com/searchcio/definition/digital-platform>
21. [https://en.wikipedia.org/wiki/Digital\\_platform](https://en.wikipedia.org/wiki/Digital_platform)
22. <https://www.cognizant.com/us/en/glossary/digital-platform>
23. Stiven Uotts. Digital Platforms: A Brief Introduction. <https://www.bmc.com/blogs/digital-platforms>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**







+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)